AYSU
HVAC SYSTEMS

DAMPERLAR · TEXNIK VARAQA

Mahsulot kodi: **AYS-DMP-YS**

KALSIY SILIKATLI YONG‘INGA QARSHI DAMPER



Asbestsiz kalsiy silikat parrak va ko‘pchuvchi zichlagichlari tufayli yuqori olovbardoshlikka ega damper. Yuritmali yoki termoqulfli bo‘ladi.

EI SINFI EI 120 S	O‘LCHAM Loyihaga ko‘ra
BOSHQARUV Yuritma / termo	TERMOQULF 72 °C

XUSUSIYATLARI

- Asbestsiz kalsiy silikat parrak
- Ko‘pchuvchi zichlagichlar yong‘inda tirqishlarni yopadi
- Odatda ochiq; yuritma yoki termoqulf bilan ishga tushadi
- Kanalda 72 °C bo‘lganda termoqulf damperni yopadi
- O‘lchamlar loyihaga ko‘ra
- Yuritmalar: SIEMENS, BELIMO, NANOTEK, HOOCON

VARIANTLAR

VURITMALI
Qaytaruvchi prujinali yuritma
panel / BMS signali bilan yopiladi; holat signali, masofadan sinov


TERMOQULFLI
Yuritmasiz, mexanik
72 °C da termoqulf eriydi, prujina parrakni yopadi; elektr kerak emas

TEXNIK TAVSIFLAR

Olovbardoshlik EI 120 S	Parrak kalsiy silikat, asbestsiz
Zichlagich ko‘pchuvchi	Ishga tushish 72 °C
Yuritma kuchlanishi 24 V AC/DC yoki 230 V AC	Kanalga ulanish flanetsli

O‘LCHAMLAR

W × H loyihaga ko‘ra · o‘lchamlar mm



OLD KO‘RINISH

A–A KESIM

BUYURTMA MA’LUMOTLARI

Buyurtma kodi	AYS-DMP-YS-[W×H], masalan AYS-DMP-YS-600×400
Ishga tushish	buyurtmada ko‘rsatiladi: yuritmali (24 V / 230 V) yoki termoqulfli
Yuritma	standart SIEMENS; so‘rov bo‘yicha BELIMO, NANOTEK, HOOCON
O‘lcham	W × H kanal ichki o‘lchami, loyihaga ko‘ra istalgan; L — modelga ko‘ra

Olovbardoshlik sinfi va sertifikatlar har bir model uchun ko‘rsatiladi. Yuritma ishlab chiqaruvchi tasdiqlagan moment va kombinatsiya bo‘yicha tanlanadi.

AYSU
HVAC SYSTEMS

DAMPERLAR · TEXNIK VARAQA

Mahsulot kodi: **AYS-DMP-YS**

KALSIY SILIKATLI YONG‘INGA QARSHI DAMPER

ISHLASH PRINSIPI

YURITMALI

1. **Odatiy ish:** Yuritma kuchlanish ostida prujinani tarang ushlaydi, parrak ochiq.
2. **Ishga tushish:** Yong‘in paneli yoki BMS dan yopish signali keladi, ta’minot uziladi yoki kanalda 72 °C bo‘ladi.
3. **Yopilish:** Kuchlanish yo‘qolganda prujina parrakni yopadi (fail-safe); parrak zichlagichlarga o‘tiradi.
4. **Signal va sinov:** Oxirgi kalitlar ochiq / yopiq holatni bildiradi; damper masofadan sinaladi.

TERMOQULFLI

1. **Odatiy ish:** Parrak termoqulf bilan ochiq holatda ushlanadi, prujina tarang.
2. **Ishga tushish:** Kanalda 72 °C bo‘lganda termoqulf eriydi va parrak qulfi bo‘shaydi.
3. **Yopilish:** Prujina parrakni yopadi; u zichlagichlarga o‘tirib, olov va tutunni to‘xtatadi.
4. **Qayta tayyorlash:** Yong‘indan keyin termoqulf almashtiriladi, parrak qo‘lda ochiladi, prujina taranglanadi.

Ikkala variantda: yong‘inda ko‘pchuvchi zichlagichlar parrak va korpus orasidagi tirqishlarni yopadi; kalsiy silikat parrak issiqlikni narigi tomonga o‘tkazmaydi.

YURITMA VARIANTLARI

Katalogdagi markalar va kuchlanishlar

MARKA	SERIYA	MOMENT	KUCHLANISH	IZOH
SIEMENS	GMA · GCA	7 – 16 Nm	24 V AC/DC · 230 V AC	standart · OpenAir seriyasi
BELIMO	BFL · BFN · BFG · BF	4 – 18 Nm	24 V AC/DC · 230 V AC	MP-Bus, Modbus, BACnet opsiyasi
NANOTEK	yong‘in / tutun seriyasi	–	24 V AC/DC · 230 V AC	termoelementli yuritmalar
HOOCON	SA-FU · SA-MU	3 – 30 Nm	AC/DC 24 V · AC 100–240 V	IP54, 72 °C termodatchik opsiyasi

O‘RNATISH VA XIZMAT

1. **O‘rnatish:** Damper sertifikatdagi tugun bo‘yicha o‘rnatiladi; parrak o‘qi devor ichida qoladi, bo‘shliq qorishma yoki ruxsat etilgan olovga chidamli material bilan to‘ldiriladi.
2. **Kanalga ulanish:** Kanallar flanets orqali ulanadi va alohida tayanchga ega; damper korpusiga yuk tushmaydi, parrak erkin aylanishi kerak.
3. **Elektr (yuritmali):** Yuritma yorliqdagi kuchlanishga (24 V yoki 230 V) ulanadi; oxirgi kalitlar yong‘in paneli yoki BMS ga ulanadi.
4. **Xizmat va sinov:** Parrak, zichlagichlar va ishga tushirish mexanizmi muntazam tekshiriladi; damper yopib-ochib sinaladi. Kirish uchun lyuk qoldiriladi.

NEGA KALSIY SILIKAT?

Yuqori olovbardoshlik
parrak issiqlik o‘tkazmaydi; EI 120 S sinfiga mos

Xavfsiz material
asbest yo‘q

Zichlik
zichlagichlar yong‘inda ko‘pchib tirqishlarni yopadi

AMAL QILISHI

Olovbardoshlik sinfi va sertifikatlar har bir model uchun ko‘rsatiladi. Yuritma seriyalari va momentlari ishlab chiqaruvchilar hujjatlariga asoslanadi; tasdiqlangan kombinatsiya tanlanadi.

BELGILAR

E	yaxlitlik: olov va issiq gaz o‘tkazmaydi
I	issiqlik izolyatsiyasi: narigi tomon qizimaydi
S	tutun o‘tkazmasligi
120	olovbardoshlik muddati (daqiqa)
BMS	binani boshqarish tizimi